

# **TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Salixov S.A.**

## **AGROLOGISTIKA**

**O`zbekiston Respublikasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan 5252300 – “Logistika”  
bakalavriat ta’lim yo`nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun o`quv qo`llanma  
sifatida tavsiya etilgan**

**TOSHKENT - 2022**



**Agrologistika.** Salixov S.A. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti - **T.:**  
«YANGI NASHR», 2022.- \_\_ bet. ISBN: \_\_\_\_\_

Mazkur o'quv qo'llanmada respublikamizda logistika sohasida transport va yuklarni qayta ishlashni ta'minlaydigan infratuzilma obyektlarini tashkil etish va rivojlantirish asosida muhandislik-texnik inshootlar, aloqa vositalari va ma'lumotlar almashinuvi kompleksini, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida tijorat-huquqiy va iqtisodiy aloqalar tizimini o'z ichiga olgan tovar ayirboshlash jarayonlarini boshqarishda logistikaning asosiy rolini zamonaviy konsepsiyasini aks ettiradi. O'quv qo'llanmada logistika infratuzilmalarining nazariy asoslari va mexanizmlari to'g'risida so'z yuritilgan bo'lib, u 5252300 – “Logistika” bakalavriat ta'lim yo'nalishining “Agrologistika” fanidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

В данном учебном пособии отражена современная концепция основной роли логистики в управлении процессами товарооборота, включающая комплекс инженерно-технических сооружений, средств связи и обмена информацией, систему торгово-правовых и экономических связей между хозяйствующими субъектами на основе создания и развития объектов инфраструктуры, обеспечивающих транспортировку и переработку грузов в сфере логистики в республике. В учебном пособии говорится о теоретических основах и механизмах логистических инфраструктур, что рекомендуется в качестве учебного пособия по дисциплине “Агрологистика” направления подготовки бакалавров 5252300– “Логистика”.

This textbook reflects the modern concept of the main role of logistics in managing the processes of trade turnover, including a complex of engineering and technical structures, communication and information exchange facilities, a system of trade, legal and economic relations between economic entities based on the creation and development of infrastructure facilities that provide transportation and processing of goods in the field of logistics in the republic. Logistics of transport and warehouse services involves the process of providing all types of services for the transportation, processing and distribution of goods, the totality of commodity, financial and information flows. The textbook talks about the theoretical foundations and mechanisms of logistics infrastructures, which is recommended as a textbook for the discipline “Agrologistics“ Bachelor's degree programs 5252300 – “Logistics”.

© **Salixov S.A.**

## KIRISH

Mamlakatimizda sanoat, tadbirkorlik tobora rivojlanib bormoqda. Yil boshidan buyon 50 mingta yangi korxonalar tashkil topgan, eksportyorlar soni 7 ming 500 dan oshgan. Eksport hajmi o'tgan yilga nisbatan 1,3 baravarga ko'payib, 8 milliard 200 million dollarga yetgan. Iqtisodiyotda ishlab chiqarish qanchalik muhim bo'lsa, mahsulotni yetkazib berish ham shunchalik ahamiyatli. Ayniqsa, hozir dunyoda logistika muammolari avjiga chiqqan vaziyatda bu o'ta dolzarb hisoblanadi.

Shu bois davlatimiz tomonidan eksportchi korxonalar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu yil yurtimiz mahsulotlari 32 ta yangi bozorlarga kirib bordi. Jahon savdo tashkilotiga kirish bo'yicha ishlar ham jadallashmoqda.

Dunyoda yuk tashish xarajatlari oshganini inobatga olib, eksportyorlarga bu xarajatlarni qisman qoplash uchun davlat tomonidan 170 milliard so'm kompensatsiya berildi. Shuningdek, Yevropaga tayyor mahsulotlar eksport qiluvchi korxonalariga transport xarajatlari uchun subsidiya miqdori 50 foizdan 70 foizga oshirildi.

Yevropaga eksport yuklarini tashish uchun qo'shimcha ruxsatlar olish muhimdir. Avtomobilda yuk tashish uchun Pokiston va Turkmaniston bilan qo'shma transport kompaniyalari tashkil etish masalalari o'rganilmoqda.

“Qo'ng'iroq-Beynov” xalqaro avtomobil yo'li rekonstruksiyasini jadallashtirish, yuk vagoni ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq ishga solish ham dolzarb masalalardan biridir.<sup>1</sup>

**2022-yilning yanvar-iyun** oylarida mamlakat bo'yicha tashilgan tranzit yuklarning hajmi **3 mln 476 ming tonnani** tashkil etdi. Taqqoslash uchun, joriy yilning dastlabki uch oyida bu ko'rsatkich **1 mln 741 ming tonnani** tashkil etdi. Shundan **3 mln 367 ming tonna** yuk temir yo'l transporti orqali tashilgan bo'lsa, avtomobil transporti orqali tashilgan yuk hajmi **108 ming tonnani** tashkil etdi.

---

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoevning 2022 – yil 9 - avgust kuni xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha taqdimot bilan tanishuvi. <https://president.uz/uz/lists/view/5415>

Temir yo‘l transporti orqali tashilgan yuk jami hajmiga nisbatan **97%ni** egalladi. Joriy yilning ikkinchi choragida O‘zbekiston hududidan o‘tgan vagonlar soni **58 518 birlikdan**, avtomobil transportlari soni esa **6 647 birlikdan** iborat bo‘ldi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada logistik toifalari aniq tasniflash, agrologistikaning asosiy tushunchalari va qoidalariga katta e‘tibor berildi. Chunki iqtisodiyot sohasida xulosalar va tushuntirishlarning aniqligi hamda ishonchliligi muhim hisoblanadi.

Hozirgi paytda tovarlarni saqlash va tashish logistika faoliyatining muhim tarkibiy qismidir. Ularni amalga oshirish qiymati kompaniyaning logistika xarajatlarining 12% dan 40% gacha o‘z ichiga oladi<sup>2</sup>.

Sanoatda ombor(xona)larga kirish ishlab chiqaruvchilar, ulgurji sotuvchilar va chakana sotuvchilar o‘rtasidagi raqobatbardoshlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, tovarni oxirgi iste‘molchiga eng past narxda yetkazib berish, lekin shu bilan birga eng ko‘p daromad olish uchun ham mehnat qilinadi. Kompaniyaning real vaqt rejimida va oqilona xarajatlar bilan ishlashi xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar uchun omborlarni yaratishni talab qiladi, chunki, hatto xaridorning talablarini bilish va uning buyurtmasini bajarish uchun zarur bo‘lgan hamma narsaga ega bo‘lsa ham, darhol yetkazib berishni amalga oshirish mumkin emas. Ko‘pincha tovarlarga bo‘lgan ehtiyoj faqat ma‘lum darajada aniqlik bilan aniqlanadi, shuning uchun korxonalar talab va taklifni boshqarishni yaxshilash, shuningdek, umumiy xarajatlarni kamaytirish uchun zaxiralardan foydalanadilar.

O‘zbekistonda yiliga **20 million tonna** meva-sabzavot yetishtiriladi. Lekin ularni sanoat usulida qayta ishlash darajasi atigi **15 foiz** bo‘lib, shundan **7–8 foizi** eksport qilinmoqda. Infratuzilma yetarli emasligi tufayli yig‘ishtirish va saqlash jarayonida **30 foiz** mahsulotlar yo‘qotilmoqda. Bu sohadagi imkoniyatlardan oqilona

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 oktyabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida"gi PQ-2646-son Qarori. –O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y. 45-con.

foydalanib, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash kengaytirilsa, oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish va eksport hajmini oshirish mumkin. Buning uchun, avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va eksport qilish jarayonlarini qamrab oladigan zamonaviy agrologistika markazlarini ko'paytirish zarur.

Bugungi kunda O'zbekistonda **31 ta agrologistika markazi, 1 ming 500 ta** sovutkich omborlar bor. Ularda jami yetishtiriladigan meva-sabzavotning **4,5 foiz**inagina saqlash mumkin. Bu juda kam, albatta.

**2025 yilga qadar** sovutkichlar sonini **4500 taga**, agrologistika markazlarini **140 taga** yetkazish vazifasi qo'yilgan. Osiyo taraqqiyot bankining imtiyozli krediti ishtirokida Andijon, Samarqand va Toshkent viloyatlarida **agrologistika markazlari** barpo etish, Jizzax, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida ham shu boradagi ishlarni boshlash zarur.

Mahsulot yetishtiruvchilar bilan qayta ishlovchi korxonalar o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilmaganini alohida ta'kidlash zarur.

Masalan, meva-sabzavotning **65 foizi**, go'sht va sut mahsulotlarining **93–95 foizi** dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqalarida yetishtirilmoqda. Biroq, shu mahsulotlarni qayta ishlovchi korxonalar **50–60 foiz** quvvatda faoliyat yuritmoqda. O'tgan yili meva-sabzavotning **19 foizi**, go'sht va sut mahsulotlarining **16 foizigina** sanoat darajasida qayta ishlangan. Shu borada yana bir misol. Odatda uzum, qovun, tarvuz, qovoq va anorning urug'i tashlab yuboriladi. Xorijda bu urug'lar qayta ishlanib, tansiq mahsulotlar tayyorlanadi. Xususan, bir kilogramm tarvuz urug'i yog'i jahon bozorida **28 dollar**, anor urug'iniki esa **350 dollar** turadi. Yurtimizda ham ushbu mahsulotlarni yig'ib olish va qayta ishlash yo'lga qo'yilsa, yiliga **250 million dollarlik** eksportbop mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.<sup>3</sup>

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2019 yil 4 iyul kuni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat tovarlari sifatini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishidan ma'lumot. [www.gazeta.uz/uz/2019/07/04/agrologistika/](http://www.gazeta.uz/uz/2019/07/04/agrologistika/)

## **I-BOB. AGROLOGISTIKA. UMUMIY TUSHUNCHALAR VA TAMOIYILLAR.**

### **1.1. “Agrologistika” tushunchasi, tarihi va zamonaviy tendensiyalari**

Har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomiri bo`lgan logistika tizimi juda muhim ahamiyatga ega. Samarador logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta'minlaydi, bozordagi raqobatni rag`batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi. Rivojlanib borayotgan mamlakatimiz uchun samarador logistika tizimini tashkil qilish juda ham muhim.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyotdagi o'zgarishlar bugungi kunda o'zgacha boshqarish va ishni tashkil etish usullarini talab etmoqda. Tabiiyki, bu o'z navbatida ishlab chiqarishni boshqaradigan rahbarlarni tayyorlashda yangicha, zamonaviy boshqarish usullarini va iqtisodiy yo'nalishlarni talab etmoqda. Bu bilimlarni iqtisodiyotning yangi yo'nalishi bo'lgan logistika fani orqali bilib olish mumkin.

Logistika - ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar doirasida tovar va xizmatlarni xaridor tomon harakat samaradorligini oshirish maqsadida “xom-ashyo sotib olish, taqsimlash, sotish va iste'mol qilish”da yagona tizimga birlashgan turli tashkilot va kompaniyalarning barcha operatsiyalar, muolaja va vazifalarni muvofiqlashtirish asosida integratsiyalangan birgalikdagi faoliyatidir.

«Logistika» termini xorijiy va boshqa adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. «Logistika» so'zi inglizcha (logistics) so'z bo'lib, «sanoq san'ati», “tafakkur qilish, hisoblash san'ati” demakdir.

Bugungi kunda esa logistika boshqarish quroli, kontseptsiyasi, jarayoni kabilarni o'z ichiga olgan alohida fan sanaladi.

Logistika – iqtisodiy tizimda, mazkur tizim maqsadlariga yetishish uchun, u vujudga kelgan joydan to u borishi lozim bo'lgan manzilgacha imkon qadar kam xarajat bilan yetkazib berish sohasidagi moddiy va u bilan bog'liq bo'lgan axborot, moliyaviy va servis oqimni boshqarish to'g'risidagi fandır.

Logistika – iste'molchilarning talablarini to'la qondirish va mablag'larning optimal ishlatilishi maqsadida moddiy oqimlar, ular bilan bog'liq bo'lgan axborot, moliyaviy oqimlar, servis va uning harakatlanishini rejalashtirish, tashkil qilish va nazorat qilish jarayonidir.

Biznes nuqtai nazaridan logistika – moddiy oqim va u bilan bog'liq bo'lgan axborot, moliyaviy oqim va servisni integratsiyalashgan boshqaruv quroli hisoblanib, optimal sarf-xarajatlardan maqsadga erishishga zamin yaratadi.

Logistikada moddiy va u bilan bog'liq bo'lgan servis, ma'lumot, moliyaviy oqimlar tadqiqot va boshqaruv obyekti bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlarda oqimning bir qancha ma'nolari keltiriladi, aksariyat olimlar oqim bu - bir butun kabi qabul qilinadigan, ma'lum bir vaqt oralig'idagi jarayon kabi mavjud bo'ladigan, ma'lum bir vaqt oralig'ida mutlaq birlikda o'lchanadigan obyektlar yig'indisidir, degan fikrni yoqlaydilar. Oqimni tavsiflaydigan asosiy parametrlar quyidagilar: boshlang'ich va so'nggi punktlar; yo'lning traektoriyasi va uzunligi, oraliqdagi punktlar; harakatlanish va tezlik vaqti.

Logistika obyekti – moddiy oqimlar, oqimlar jarayoni, iste'molchilarni buyurtmalarini bajarish jarayoni, mahsulotlarni tashish jarayoni.

Logistika predmeti – Mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish jarayonini nazorat qilish, tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish bo'yicha logistikaning faoliyatidir.

O'z navbatida logistika zamonlar o'tib turli soha va tarmoqlarga bo'lindi. Xususan, logistikaning asosiy tarmoqlaridan biri bu – Agrologistikadir.

Fan va amaliyot sohasi agrologistikaning asosiy qoidalari sifatida muhokama qilinadi. Agrologistikaning etimologiyasi va ta'rifi, fanning obyekti va predmeti, qishloq xo'jaligi materiallari oqimining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, agrologistikaning hududiy miqyosdagi (mikro-, mezo- va makrologistika) tasnifi haqida gapirilganda, tarixiy faktlarni taqdim etishda ibtidoiy jamiyatni qamrab olgan qadimiy davrga, yuk tashishda yuk tashuvchi hayvonlarning energiyasidan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi. Birinchi g'ildirakli aravalar kashf etildi. Oziq-ovqat mahsulotlarini tashishda foydalanilgan qadimiy idishlar (amfora, doliy, pitos) haqidagi ma'lumotlar tarixiy sharh sifatida keltirilgan. Tipik agrologistik zanjir zamonaviy qishloq xo'jaligi doirasida tavsiflanadi, jumladan, quyidagi bosqichlar:

- qishloq xo'jaligi xom ashyosining birlamchi manbalari;
- yig'ish;
- saqlash;
- tovar holati uchun chuqur qayta ishlash;
- tovarlarni taqsimlash;
- tovarlarni iste'mol qilish.

O`quv qo`llanmada oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hisobga olgan holda ko'rib chiqilayotgan agrologistikaning dolzarb yo'nalishlari keltirilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali

foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida ishlab O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ishlab chiqildi.<sup>4</sup>

Unga ko‘ra, quyidagilar strategiyani amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlash va iste‘mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag‘batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo‘shilgan qiymatli qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;

qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘shishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;

---

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-son

yer va suv resurslari, oʻrmon fondidan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

qishloq xoʻjaligida davlat boshqaruvi tuzilmasini restrukturizatsiya qilish va yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;

fermer xoʻjaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qoʻshilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash;

qishloq xoʻjaligida ilmiy-tadqiqot, taʼlim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va maʼlumotlarni tarqatishning samarali shakllarini qoʻllashni nazarda tutuvchi ilm-fan, taʼlim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;

qishloq joylarini muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga koʻmaklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish;

zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali statistik maʼlumotlarni toʻplash, tahlil qilish va tarqatishning ishonchli uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi tarmoq statistikasining shaffof tizimini yaratish.

Yuqoridagi ustuvor yoʻnalishlar agrologistiklarning zamonaviy tendensiyalarining yorqin namunasidir.

## **1.2. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi: umumiy qoidalar va ustuvor yo‘nalishlari**

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini istiqbolda barqaror rivojlantirish sohada davlat siyosatini yangicha yondashuvlar asosida yuritishni talab qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur Strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi:

*aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash;*

*qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;*

*soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish;*

*tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash;*

*davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;*

*tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish;*

*qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta‘lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;*

*qishloq hududlarini rivojlantirish;*

*tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish.*

Strategiyani amalga oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha 2030 – yilga qadar har yili 1-dekabrqa qadar kelgusi yilga mo‘ljallangan dastur ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog‘liq bo‘lib, mamlakat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligining to‘rt tarkibiy qismlari (oziq-ovqatning mavjudligi, uni xarid qilish qobiliyati, undan foydalanish va uning barqarorligi) bo‘yicha oziq-ovqat xavfsizligining davlat siyosati ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Aholi sonining o‘sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, shuningdek, iqlimning keskin o‘zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga ta‘sir etuvchi asosiy omillardir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha bir qator choralar amalga oshirilishi natijasida O‘zbekiston dunyoda egallagan o‘rnini mustahkamlashga erishdi va bosqichma-bosqich global reytinglarda o‘z mavqeyini yaxshilab oldi. O‘zbekiston Respublikasi **2018-yilda** Global ochlik indeksi bo‘yicha **119 mamlakat** orasida **52-o‘rinni** egallab, **12,1** ko‘rsatkich bilan **“mo‘tadil”** darajaga erishdi.

Biroq, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlari ta‘minoti barqarorligiga erishish, kam daromadli oilalarning xarid qobiliyatini oshirish, mahsulotlar narxi va miqdori keskin o‘zgarishining oldini olish hal etilishi zarur bo‘lgan muammolardan hisoblanadi.

Mazkur ustuvor yo‘nalishning asosiy maqsadi — respublikaning barcha aholisi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirishdan iborat.

Ustuvor yo‘nalish aholini barqaror narxlardagi xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashga qaratilgan. Bu esa O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM), shu jumladan BMTning 2-BRM “Ochlikka

barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iste'molni yaxshilash va barqaror qishloq xo'jaligini targ'ib qilish"da belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanishi lozim:

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini oziq-ovqat bilan ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini ijtimoiy obyektlar bilan integratsiyalash;

- boshqoli don yetishtirishda davlat intervension xaridlar tizimini joriy qilish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmidan bosqichma-bosqich voz kechish hamda boshqoli donni kvota asosida bozor narxlarida sotib olish mexanizmini joriy etish;

- sog'lom iste'mol madaniyatini targ'ib qilish bo'yicha uzoq muddatli dastur ishlab chiqish;

- xalqaro darajada tan olingan uslubiyatlar va ilg'or tajribalar asosida oziq-ovqat xavfsizligini baholash tizimini joriy qilish hamda doimiy monitoring qilish;

- ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot turlari ishlab chiqarishni intensivlashtirishga doir tarmoq dasturlarini ishlab chiqish;

- chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish, baliq va parranda go'shti, shuningdek, sut ishlab chiqarishni barqaror intensivlashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borish.

### **1.3. Qulay agrobiznes muhitini va agrologistikada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish**

Qo'shilgan qiymat zanjirining rivojlanishi qishloq xo'jaligi raqobatdoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Mahsulotlarni daladan yakuniy iste'molchigacha yetkazib berish, ya'ni yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va sertifikatlash xarajatlarining yuqoriligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan olinadigan foydani kamaytiradi.

Oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoatining past darajada rivojlanganligi yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini cheklamoqda.

Infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etish maqsadida taraqqiy etgan moliyaviy bozorlar, qulay ishbilarmonlik muhiti, shuningdek, ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va ishlab chiqarish-sotish zanjirlarini rivojlantirishga qaratilgan choralarni ko'rish talab etiladi.

Eksport qilinadigan meva-sabzavotlarning asosiy qismini ishlab chiqaruvchi dehqon xo'jaliklarida mahsulotlarni qayta ishlash va qadoqlash imkoniyatlari cheklanganligi katta yo'qotishlarga olib kelmoqda. Shuningdek, narxlarning mavsumiy keskin o'zgarishi va bozor sharoitlarining barqaror emasligi ham ular faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda kichik ishlab chiqaruvchilar tomonidan turli moliyaviy manbalar, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining kreditlari hisobidan zamonaviy omborxonalar va qayta ishlash uskunalari uchun investitsiyalar yo'naltirilmoqda. Shunga qaramasdan ular qayta ishlash korxonalarini va eksport qiluvchi tashkilotlardan ajralib qolmoqda.

Kichik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini birlashtirishning samarali mexanizmlari to'liq shakllanmaganligi sababli, ularning faoliyati tarqoqligicha qolmoqda. Bu esa yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishga to'sqinlik qilmoqda hamda qo'shilgan qiymat zanjirlariga birlashish imkonini cheklamoqda.

Ta'kidlash joizki, rivojlangan mamlakatlar (Yevropa Ittifoqi, AQSh, Kanada) bozorlarida kooperativlarning ulushi 40 foizdan oshadi, O'zbekistonda esa bu yo'nalish endigina rivojlanmoqda.

Xalqaro standartlar va sifat talablariga javob beradigan laboratoriyalar, ulgurji bozorlar va logistika markazlari, shuningdek, bojxona va chegara maskanlarida meva-

sabzavot mahsulotlarini fitosanitariya nazoratidan o'tkazish uchun jihozlar yetishmovchiligi kuzatilmoqda.

Bu o'z navbatida yetishtiriladigan va sotishga chiqariladigan mahsulotlar hajmini oshirish, qo'shilgan qiymatni ko'paytirish, eksport geografiyasi va mahsulot turlarining diversifikatsiya qilinishiga to'sqinlik qilmoqda.

Sanitar va fitosanitar nazorat milliy huquqiy bazasini Jahon savdo tashkiloti talablari va maqsadli tashqi bozorlar standartlari bilan muvofiqligini ta'minlash orqali qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va sifatini ta'minlash zarur.

Bundan tashqari, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotida 70 foizdan ortiq ulushga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari bilan tayyorlov, qayta ishlash va eksportyor korxonalar o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlari yetarli rivojlanmagan.

Agrar sektorning eksport salohiyatini oshirish, qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar hajmini ko'paytirish, xalqaro standartlar asosida mahsulotlarni sertifikatlash tizimini keng joriy etish va kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish mazkur ustuvor yo'nalishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanmoqda:

bog'dorchilik va issiqxona xo'jaliklari mutaxassislari uchun qisqa muddatli, shu jumladan, masofaviy treninglar tashkil etish, o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish va tarqatish;

milliy karantin va o'simliklarni himoya qilish tizimini Jahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya choralari bo'yicha kelishuvi talablariga moslashtirish;

hayvonlar sog'lig'ini saqlash va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni nazorat qilishning milliy tizimini Butunjahon hayvonlar sog'lig'ini saqlash tashkiloti (XEB) standartlariga moslashtirish;

ilg'or xalqaro tajribalar asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Innovatsion ta'lim markazini tashkil etish;

xalqaro bozorlarda tan olingan sifat standartlarini (Global G.A.P, Organic, NACCP va boshqalar) joriy etishga ko'maklashish mexanizmlarini ishlab chiqish;

yetakchi agrar korxonalar bilan qayta aloqa mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

yangi maqsadli eksport bozorlarida muzokaralar olib borish va savdo kelishuvlarini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

mahalliy va maqsadli xalqaro bozorlarda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari marketingi va tashish xarajatlarini kamaytirish;

mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini maqsadli eksport bozorlariga chiqarish uchun "Made in Uzbekistan" brendidan foydalanishni kengaytirish imkoniyatlarini baholash;

milliy sifat tizimini takomillashtirish bo'yicha reja ishlab chiqish;

eksport bozorlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etish, eksportga tayyorgarlik, savdo rejimi va savdoni moliyalashtirish bo'yicha maslahat xizmatlarini rivojlantirish;

maqsadli bozorlar to'g'risida ma'lumotlar to'plash jarayonida, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari savdosini ilgari surishda O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining rolini oshirish;

o'simlik navlari mualliflari huquqlarini (shu jumladan, patent sinovlarini) muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

agrologistika markazlari negizida yagona savdo tizimini (auksion va birja savdolari asosida) joriy etish;

qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash markazi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni takomillashtirish, yangi ekin turlarini saqlash maqsadida Milliy genlar bankini yaratish;

qishloq xo'jaligini standartlashtirish markazi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turlarini takomillashtirish;

paxta xomashyosi yetishtirish va paxta-to'qimachilik sohasida bozor mexanizmlarini keng joriy etish;

O'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha xalqaro konvensiyaga (IPPC) qo'shilish;

dehqon xo'jaliklari faoliyatini kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida yer uchastkalarini imtiyozli shartlarda ajratish tartibini ishlab chiqish;

xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb qilgan holda genetik modifikatsiyalangan ekinlar navlarini sinash uchun maxsus laboratoriya tashkil qilish;

savdo infratuzilmasi va agrologistika markazlari, oziq-ovqat xavfsizligi laboratoriyalari, sanitariya va fitosanitariya tizimi, zarur uskunalar va inventarlar uchun investitsiyalar jalb qilishni yanada rag'batlantirish;

o'simliklarni himoya qilish bo'yicha xalqaro konvensiya va boshqa xalqaro standartlarga muvofiq pestitsidlarni va pestitsidlarning ruxsat etilgan maksimal miqdorlarini (MRL) ro'yxatga olish, eksport qiluvchilar va ishlab chiqaruvchilarni axborot bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish;

urug'chilik va meva-sabzavotchilik sohasi ilmiy-tadqiqot institutlarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilishga xalqaro moliya institutlari grantlari hamda texnik ko'mak mablag'larini jalb qilish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari o'rtasida kooperatsiyani rag'batlantirish hamda ularni ichki va tashqi bozorlarda zamonaviy ishlab chiqarish-sotish zanjiriga integratsiya qilish choralari ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va bu sohada xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish, tezkor qarorlar qabul qilish va tarmoq siyosatini shakllantirish bo'yicha muzokaralarda ishtirok etuvchi birlashmalarni (kooperativlar va boshqalar) tashkil etish;

qishloq xo'jaligi birlashmalari, fermer va dehqon xo'jaliklarining qayta ishlash sanoati korxonalarini (shu jumladan klasterlar) bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash;

agrar sohada kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va faoliyatini diversifikatsiya qilishni qo'llab-quvvatlash uchun tajriba — sinov tariqasida investitsiyaviy dasturlarni amalga oshirish;

meva-sabzavotchilik va chorvachilik tarmoqlarini baholash natijalariga ko'ra (dastlab ko'p yillik ma'lumotlar va bozor tendensiyalari tahlili asosida eksport qilinuvchi asosiy 10 — 15 ta mahsulot turi bo'yicha) eksportni oshirish strategiyasini ishlab chiqish;

oziq-ovqat xavfsizligi va sifatini nazorat qilish tizimini modernizatsiya qilish.

I – bob hulosasi sifatida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston agrologistika sohasida o'ziga hos tarix hamda zamonaviy tendensiyalar yo'lga ega. Ammo shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda mamlakatimiz yanada ildam qadamlar bilan oldinga borishi zarur va bunda xorij tajribasini tahlil qilish hamda amaliyotga joriy qilish muhim vazifalardandir.

### **Nazorat uchun savollar**

- 1. Agrologistikaning tarihi bo'yicha ma'lumot bering**
- 2. Agrologistikaning umumiy vazifalari deganda nimani tushunasiz?**
- 3. Agrologistikaning rivojlanish tendensiyalari haqida fikr bildiring**

## **II-BOB. AGROLOGISTIKADA BOSHQARUV: XUSUSIYLASHTIRISH HAMDA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIK**

### **2.1. Soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish**

Fermerlar uchun resurslar yetkazib berish hamda mahsulotlar ishlab chiqarish va sotishda davlatning bevosita ishtirok etishi sohaga xususiy investitsiyalar jalb qilinishini cheklab qo‘ymoqda.

Agrobiznes subyektlariga maslahat xizmatlari ko‘rsatish tizimining rivojlanmaganligi, biznesni boshqarish ko‘nikmalarining yetishmasligi, agrosanoat majmui va bank sohalarida kadrlar salohiyatining cheklanganligi xalqaro moliya institutlari kredit mablag‘larini samarali o‘zlashtirilishini cheklamoqda.

Shuningdek, investitsiyalarni boshqarish samaradorligini baholashning mustaqil monitoringi hamda baholash strukturasi, tizimi va mexanizmlari mavjud emas.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari tomonidan maqbul qishloq xo‘jaligi va ekologik amaliyot (GAEP), maqbul ishlab chiqarish amaliyoti (GMP) va boshqa standartlarga rioya etilishini rag‘batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish lozim.

Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va barqaror rivojlanishi uchun xususiy investitsiyalarni jalb etishga ko‘maklashuvchi samarali tizimni yaratish mazkur ustuvor yo‘nalishning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olingan:

ichki bozorda narxlar barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan boshqoli don intervensiyasini amalga oshirish uchun kerakli bo‘lgan hajmdan tashqari davlat xaridlaridan to‘liq voz kechish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ajratilgan tijorat kreditlarining foiz stavkalarini subsidiyalash;

qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining strategik yo‘nalishlari va ehtiyojlariga mos kreditlash va sug‘urtalash mexanizmini takomillashtirish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini kreditlashda “omborxonaga guvohnomalari” mexanizmini joriy etish;

O‘zbekiston Respublikasi tovar xom-ashyo birjasining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi bo‘yicha faoliyatini kengaytirish;

qo‘shimcha mexanizmlar va moliyaviy vositalarni joriy etish va bozor ishtirokchilariga teng imkoniyatlar yaratish orqali hamkorlikning shaffof mexanizmini ishlab chiqish;

resurs ta‘minoti va xizmat ko‘rsatish sohasidagi nostrategik davlat korxonalarini xususiylashtirish orqali resurslar va xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirish;

imtiyozli kredit hisobiga resurslar yetkazib berish va xizmatlar ko‘rsatish amaliyotidan voz kechish;

agrosanoat majmui subyektlari o‘rtasida fyuchers shartnomalari asosida ishlashga ko‘maklashish va buni rag‘batlantirib borish;

yer uchastkalariga bo‘lgan ijara huquqi qiymatini bozor narxlarida aniqlash tartibini qayta ko‘rib chiqish orqali yer uchastkalariga bo‘lgan huquqdan garov ta‘minoti sifatida foydalanish mexanizmini takomillashtirish;

xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari maqsadli jalb etilishini ta‘minlash maqsadida investitsiya dasturini ishlab chiqish;

tijorat banklari tomonidan dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari uchun kredit resurslarini ajratishni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish tartibini qayta ko‘rib chiqish;  
qishloq xo‘jaligida intensiv innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni  
rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish.

## **2.2. Agrologistikada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof – muhit muhofazasini ta`minlash**

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan 20,2 mln gektar yerlarning atigi 20,7 foizi sug‘oriladigan yerlar hisoblanadi. So‘nggi 15 yil mobaynida aholi jon boshiga sug‘oriladigan yerlar 24 foizga (0,23 ga dan 0,16 gacha) kamaygan.

Mazkur holat aholi sonining o‘ssishi, suv ta‘minoti hajmining qisqarishi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning boshqa yer fondi toifalariga o‘tishi natijasida yuzaga kelgan.

Prognozlarga ko‘ra, kelgusi 30 yil mobaynida sug‘oriladigan yer maydonlari yana 20 — 25 foizga qisqarishi mumkin.

Yerdan foydalanish huquqining yetarli darajada kafolatlanmaganligi xo‘jaliklarni boshqarish samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda va investitsiyalarni jalb qilishni cheklamoqda.

Hozirgi vaqtda yer uchastkalarini taqsimlashning hamda yerdan foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilishning aniq va shaffof mexanizmlari to‘liq yaratilmagan.

Shuningdek, yer uchastkalarini ikkilamchi ijaraga berish nazarda tutilmaganligi qishloq xo‘jaligi yerlarini nisbatan salohiyatli yerdan foydalanuvchilarga o‘tishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Mamlakat suv resurslarining qariyb 80 foizi transchegaraviy suv havzalari hisobiga shakllanadi. Mazkur holat Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini barqaror boshqarish uchun mintaqaviy hamkorlikning muhimligini belgilaydi. Mamlakatda irrigatsiya tarmoqlarining 70 foizi filtratsiyaga

qarshi qoplamaga ega emas, oqibatda suvning bir qismi dalagacha yetkazish jarayonida yo'qotilmoqda.

Mavjud irrigatsiya infratuzilmasi, nasos stansiyalarining katta qismi 30 — 40 yildan ortiq foydalanilmoqda va rekonstruksiya yoki kapital ta'mirga muhtoj.

Hozirgi vaqtda sug'oriladigan yerlarning faqatgina 1,7 foizida tomchilatib sug'orish joriy etilgan.

Dehqonchilikning irrigatsiyaga yuqori darajada bog'liqligi sababli an'anaviy sug'orish uslublarini qo'llashning davom etayotganligi hamda iqlim o'zgarishi natijasida qurg'oqchilikning keskin kuchayishi bilan vaziyat yanada murakkablashishi mumkin.

Jahon resurslari institutining prognoziga ko'ra, 2040-yilga borib O'zbekiston suv tanqisligi eng yuqori bo'lgan 33 ta mamlakatning biriga aylanadi. Hosildorlikning kamayishi oziq-ovqat xavfsizligi va to'lov balansi uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi, bu esa suv resurslarini barqaror boshqarish va qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda resurs-tejamkor texnologiyalarni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv yetkazib berish xarajatlarini qoplash mexanizmining mavjud emasligi suv tejavchi texnologiyalarni keng joriy qilishga to'sqinlik qilmoqda.

Yevropa Ittifoqi Parlamentining suv bo'yicha direktivasiga (2000/60/YI) mos yangi zamonaviy suv qonunchiligining joriy qilinishi, kelgusida suv siyosatini tartibga soladigan zarur normativ-huquqiy baza ishlab chiqilishini va suv resurslarini boshqarishning uyg'unlashgan uslublari joriy qilinishini ta'minlaydi.

Mamlakat tabiiy resurslarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri o'rmon fondi yerlari bo'lib, 11,1 mln gektarni yoki umumiy maydonning 25 foizini tashkil etadi. O'rmon bilan qoplangan maydonlar esa 3,2 mln gektarga (29 foiz) teng.

So'nggi yillarda Hukumat tomonidan o'rmon resurslarini boshqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2017-yilda O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tashkil etildi, o'rmonlar maydonini 2,3 mln gektarga kengaytirish, 12 ta yangi o'rmon xo'jaliklarini tashkil etish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shuningdek, Orol dengizining qurigan sathida o'rmonlar barpo qilish, himoya o'rmonzorlar maydonlarini kengaytirish, qishloq xo'jaligi yerlarida shamoldan himoyalovchi yashil yo'laklarni ko'paytirish, mukammal monitoring tizimini yaratish va ekologik ta'lim dasturlarini takomillashtirish ishlari olib borildi.

Shu bilan birga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish natijasida atrof-muhit va iqlim uchun yuzaga keladigan salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan qishloq xo'jaligi va qishloq hududlarining barqaror rivojlanishi uchun tabiiy resurslarni samarali boshqarish asosiy ustuvor yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatda minimal agroekologik standartlar mavjud bo'lsada, ularning asosiy qismi eski texnologiyalarga asoslangan. Qishloq xo'jaligi amaliyotlarini ishlab chiqishda ekologik omillar hisobga olinmaydi.

Agroekologik amaliyotlarni yaxshilash va tabiiy resurslarni muhofaza qilish standartlari va mexanizmlarini ishlab chiqishda ekologik omillarga integratsiya qilish talab etiladi.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish mazkur ustuvor yo'nalishning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanishi lozim:

maqbul qishloq xo'jaligi va ekologik amaliyotni (GAEP) ishlab chiqish va joriy etish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga mo‘ljallangan maqbul qishloq xo‘jaligi va ekologik amaliyot (GAEP) tamoyillariga rioya etish bo‘yicha yo‘riqnoma ishlab chiqish;

qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga maqbul qishloq xo‘jaligi va ekologik amaliyoti (GAEP), shuningdek, agrar tadbirkorlikka maqbul ishlab chiqarish amaliyoti (GMP) hamda boshqa sifat standartlarini joriy etishga ko‘maklashish choralarini ko‘rish;

qishloq xo‘jaligida ekologiya va iqlim uchun xavfsiz amaliyotni targ‘ib qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga yerdan foydalanish huquqini himoya qilish mexanizmini takomillashtirish va meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini saqlab qolgan holda dehqon xo‘jaliklari yerlarini vaqtincha foydalanish uchun berish tartibini joriy etish hamda belgilangan tartibda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlar bekor qilinganda tutash hududdagi yerdan foydalanuvchilar tomonidan dastlabki rad etish huquqini nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish;

2030-yilga qadar bir gektar maydonni sug‘orish uchun ishlatiladigan suv sarfini 20 foizga kamaytirish;

mahalliy suv tejoyvchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish;

o‘rmon resurslarini boshqarish sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish;

iqlim o‘zgarishi ta’sirini oldini olish bo‘yicha harakatlar milliy rejasini qabul qilish;

tuproqni tahlil qilishning mobil laboratoriyalarini xarid qilish orqali tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda o‘g‘itdan foydalanishning samarali amaliyotini joriy etib, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni hisobga olishning kadastr tizimini takomillashtirish hamda yerdan foydalanish va mulk huquqlarining hisobini yuritish uchun ko'chmas mulkka egalik huquqini hisobga olish tizimi bilan yagona axborot tizimini birlashtirish;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning kadastr bahosini aniqlash tizimini qayta ko'rib chiqish;

suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish;

smart texnologiyalaridan (mini o'lchov stansiyalari va "aqlli tayoqcha") foydalangan holda qishloq xo'jaligida suv bilan ta'minlash xarajatlarini qoplash tartibini ishlab chiqish;

o'rmon resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish;

o'rmon resurslarini baholash va uning monitoringini yuritishning zamonaviy usullarini joriy etish;

bozor bahosida o'rmon resurslarining hisobini yuritishni ta'minlovchi mezonlar va ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish;

biologik xavfsizlikni ta'minlash, qishloq xo'jaligida tabiiy resurslar, pestitsidlar va kimyoviy vositalardan foydalanishni nazorat qilish borasida institutsional salohiyatni mustahkamlash;

ekotizim va biotoplarning holatiga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ta'sirini monitoring qilish uchun Maqbul qishloq xo'jalik va ekologik amaliyot (GAEP) asosida minimal ekologik standartlar va talablarni ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning kadastr tizimini rivojlantirish, yer resurslarini boshqarish sohasidagi muassasalarning imkoniyatlari va infratuzilmasini modernizatsiya qilish;

yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda qishloq xo'jaligiga xususiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida sug'orish sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish va tajriba sinov tariqasida joriy etish.

### **2.3. Davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish**

Agrosanoat majmuidagi davlat organlarining funksiyalari asosan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishga yo'naltirilgan va ularning ayrimlari xususiy sektorga o'tkazilishi mumkin.

Meva-sabzavotchilik va chorvachilik sohaslarida sezilarli o'sish kuzatilishiga qaramasdan, xizmat ko'rsatish infratuzilmasi, moddiy resurslar ta'minoti hamda ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarining aksariyat qismi paxta xom-ashyosi va boshoqli don yetishtirishga mo'ljallangan.

Xalqaro standart va talablarga javob beradigan zamonaviy va sifatli xizmat ko'rsatish infratuzilmasining yetishmasligi sohadagi muammolarni yanada murakkablashtirmoqda. Bu birinchi navbatda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, veterinariya va fitosanitariya bilan bog'liq davlat xizmatlariga taalluqlidir.

Yangi bozorlarga chiqish uchun ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilarga sertifikatlash va maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi xususiy sektorni rivojlantirish zarur.

Bugungi kunda davlat korxonalarini tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar monopol ko'rinishga ega bo'lib, sohaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish, resurslar bilan ta'minlash va marketing xizmatlarini ko'rsatishda raqobatni shakllantirishga salbiy ta'sir qilmoqda.

Agrar bozorning ehtiyojlarini qondira oladigan tizimlar, xizmatlar va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish orqali mavjud institutsional tuzilmani qayta ko'rib chiqish mazkur ustuvor yo'nalishning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanishi maqsadga muvofiq:

qishloq xo'jaligi vazirligini funksional baholash (Management Functional Assessment Model — MFAM) va uning natijalari bo'yicha yangi vakolat va faoliyat

yoʻnalishlarini belgilash maqsadida vazirlikning tuzilmasi va boʻlinmalari faoliyatini qayta koʻrib chiqish;

Strategiyani amalga oshirishga masʼul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat sohasida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;

tarmoq vazirlik va idoralar faoliyatining samaradorligini baholash orqali ragʻbatlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda boshqaruv xodimlarning strategik va loyiha boshqaruvidagi salohiyatini oshirish;

tarmoqda qoʻshimcha xizmatlarni koʻrsatish maqsadida davlat-xususiy sheriklik modelini rivojlantirish;

sohaning manfaatdor tomonlari (davlat, xususiy va jamoat tashkilotlaridan iborat) forumini tashkil etish;

qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish boʻyicha Hukumat va hamkorlar (sohani qoʻllab-quvvatlashga jalb etilgan barcha donorlar va xalqaro moliya institutlari) forumini tashkil etish.

Hozirgi vaqtda davlatning qishloq xoʻjaligiga sarflanadigan xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (1,68 foiz) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) kirmaydigan (0,62 foiz), oʻrtacha darajadagi daromadli davlatlarga nisbatan qariyb uch baravar va IHTTga aʼzo mamlakatlarga (0,17) nisbatan oʻn baravar koʻpdir.

Shunga qaramasdan, qishloq xoʻjaligida samaradorlik va raqobatbardoshlik hamda ishlab chiqaruvchilarning daromadlari nisbatan pastligicha qolmoqda.

Sohani davlat tomonidan moliyalashtirishning asosiy qismi bevosita irrigatsiya uchun sarflanadi (63 foiz) hamda asosan paxta va boshoqli don yetishtirishni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan. Budget mablagʻlarining katta qismi nasos stansiyalarining elektr energiyasini qoplash uchun sarflanadi, oqibatda mavjud

irrigatsiya va drenaj tizimlarini ekspluatatsiya qilish va saqlash, ularni rivojlantirish va modernizatsiya qilish xarajatlari to‘liq qoplanmayapti.

Hozirgi vaqtda umumiy xizmatlarni qo‘llab-quvvatlashning katta qismi davlat budgetida “boshqalar” xarajat moddasi sifatida aks etadi, bu esa sohada davlat xarajatlarining strategik rejalashtirilishi yo‘qligidan dalolat beradi. Budget tizimida sohani qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro moliyaviy va kredit dasturlari (3,5 mlrd AQSh dollardan ortiq) va davlatning yirik investitsiya dasturlari yoki strategik rejalashtirish jarayonlari o‘rtasida aloqa mavjud emas.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlardagi davlat dasturlari va xizmatlariga ajratilayotgan budget mablag‘lari miqdorini qayta ko‘rib chiqish hamda moliyalash tizimini takomillashtirish lozim bo‘ladi:

atrof-muhitni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini oshirish va suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish;

oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash, veterinariya va fitosanitariya xizmatlari;

birlashmalarning turli shakllarini qo‘llab-quvvatlash (kooperativlar, klasterlar, ishlab chiqarish birlashmalari);

statistik ma‘lumotlarni yig‘ish va agrar bozorlar monitoringini yuritish tizimini takomillashtirish, bozor va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish;

qishloq xo‘jaligi sohasidagi amaliy tadqiqotlar va izlanishlar, ta‘lim va bilimlarni tarqatish tizimini rivojlantirish.

Mazkur yo‘nalishning asosiy maqsadi agrar siyosatning yangi ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq asosiy davlat xizmatlarini ko‘rsatish va tarkibiy o‘zgarishlar dasturlarini amalga oshirishga yo‘naltiriladigan qishloq xo‘jaligiga ajratilayotgan davlat moliyaviy resurslarini bosqichma-bosqich qayta taqsimlash orqali mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar mavjud:

qishloq xo'jaligini moliyalashtirish uchun xarajatlar taqsimotini qayta ko'rib chiqib, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari va qishloq xo'jaligi bilimlarini tarqatish tizimi, axborot va maslahat xizmatlari uchun ajratiladigan mablag'lar hajmini oshirish;

qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'i bilan bog'liq bo'lgan barcha budjetdan tashqari jamg'armalar faoliyatini to'liq auditdan o'tkazish va ko'rsatilayotgan xizmatlarni xususiy sektorga berish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

o'rta muddatli budjet dasturlarini samarali amalga oshirish maqsadida xalqaro texnik ko'mak mablag'laridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha dasturlarni joriy etish;

qishloq xo'jaligi sohasida soliqqa tortish tizimini chuqur tahlil qilish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga soliq yukini kamaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

II-bob hulosasi sifatida shuni ta'kidlash lozimki, agrologistika va agrobiznes sohalari boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish doimiy ravishda muhim va dolzarbdir. Bosqichma – bosqich sohalarni xususiylashtirishda albatta agrar logistika sohasini chetlab o'tish maqsadga muvofiq emasdir.

### **Nazorat uchun savollar**

- 1. Agrologistika boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish yo'llarini sanab bering**
- 2. Agrologistikada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof – muhit muhofazasini ta'minlash qay darajada muhim?**
- 3. Davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish agrologistikada qanday ahamiyat kasb etadi?**

### **III-BOB. AGROLOGISTIKADA TA`LIM VA AXBOROT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

#### **3.1. Qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish**

Ilmiy-tadqiqot, ta'lim va axborot-maslahat xizmatlarini ko'rsatishni o'zaro bog'laydigan qishloq xo'jaligiga oid bilim va axborotlarni tarqatish bo'yicha samarali tizimning yo'qligi sohani ilmiy asosda rivojlantirishdagi eng jiddiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirda ilmiy-tadqiqotlar uchun davlat investitsiyalari darajasi qishloq xo'jaligi umumiy budjetining 0,2 foizini tashkil etadi.

Ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro aloqalarning samarali mexanizmlari mavjud emasligi davlat tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy qilishni sezilarli darajada cheklamoqda.

Qishloq xo'jaligi ekinlari mahalliy navlarining hosildorligi past va tashqi bozor talablariga javob bermaydi. Import qilinadigan qimmat va mahalliy sharoitlarga moslashtirilmagan qishloq xo'jaligi ekinlari navlariga qaramlik yanada ortib bormoqda.

Ta'lim muassasalarida o'quv va kasbiy tayyorgarlik kurslari, ta'lim tizimi, shakli va o'qitish usullari zamon talablariga javob bermaydi. Mehnat bozori talablarini o'rganish va yangi mutaxassisliklarni joriy etish uchun tarmoqlararo va idoralararo muvofiqlashtirish tizimini yaratish talab etiladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatda qishloq xo'jaligiga oid bilim va axborotlar tarqatish uchun zamonaviy xususiy tuzilmalar mavjud emas.

Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat ta'minoti, ta'lim, malaka oshirish va axborot-maslahat xizmatlari sohalarida zamonaviy, integratsiyalashgan va moslashuvchan tizimni yaratish mazkur ustuvor yo'nalishning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar mavjud:

tarmoq ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyati va ilm-fan sohasini tubdan isloh qilish;

donor tashkilotlar texnik ko‘magida qishloq xo‘jaligi sohasidagi kadrlarning ta’lim va kasbiy tayyorgarlik tizimini isloh qilish;

agrobiznes subyektlari uchun mo‘ljallangan davlat xizmatlari va tizimlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash maqsadida mavjud ma’muriy tizimlarni auditdan o‘tkazish, shuningdek, tarkibiy qayta tuzish va soddalashtirish rejalarini ishlab chiqish;

ekologik xavfsiz uslublar hamda qishloq xo‘jaligi amaliyotlari va texnologiyalari, iqlim o‘zgarishi ta’sirini yumshatish va unga moslashish borasidagi axborot-maslahat xizmatlarini Muvofiqlashtirish markazini tashkil etish;

agrotexnologiyalar bo‘yicha axborot-maslahat markazlariga maxsus xodimlarni tayyorlash;

mamlakatning barcha hududlarida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida axborot-maslahat markazlarini tashkil etish.

### **3.2. Qishloq hududlarini rivojlantirish**

Mamlakat aholisining qariyb 16,4 millioni (jami aholining 49,4 foizi) qishloq hududlarida istiqomat qiladi (2018-y.). Mamlakatda tug‘ilish darajasi yuqori (23,3 promille) va shunga mos ravishda qishloq joylarida ortiqcha ishchi kuchi mavjud. 25 yoshgacha bo‘lgan odamlar aholining 45,5 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 55 foizdan ko‘prog‘ini tashkil etadi.<sup>5</sup>

Qishloq hududlarida davlat xizmatlari, shuningdek transport va axborot-kommunikatsiya aloqalari darajasi pastligicha qolmoqda. Hududiy ehtiyojlarni batafsil baholashga asoslangan va raqobat afzalliklarini hisobga olgan holda kompleks strategiya va dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi.

---

<sup>5</sup> www.stat.uz

Agrar sektorda amalga oshirilayotgan qo‘llab-quvvatlash choralari aksariyat hollarda to‘g‘ridan to‘g‘ri fermerlar va boshqa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga yo‘naltirilgan.

Xorijiy mamlakatlar bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilinganida, qishloq hududlarining iqtisodiy taraqqiy etishi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqligi va shundagina muvaffaqiyatga erishilishi, mahallalarning muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan subsidiyalarga asoslangan islohotlar samarasiz ekanligi kuzatildi.

Iqtisodiyot va sanoat vazirligining muvofiqlashtiruvi ostida amalga oshirilayotgan qishloqlarni rivojlantirish dasturlari, asosan, hududiy iqtisodiy nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, yirik shahar markazlari foydasi uchun, qishloq aholisining kichik bir qismi — fermerlar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanadigan boshqa tadbirkorlar sektori tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, biroq qishloq mahallalari chetda qolmoqda.

Qishloq hududlarini barqaror rivojlanishini ta’minlash mazkur ustuvor yo‘nalishning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

qishloq hududlarini rivojlantirish sohasida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;

qishloq hududlarini rivojlantirish uchun real ehtiyojlarni batafsil baholashni olib borish;

qishloq mahallalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va manfaatlarini himoya qilish hamda qarorlar qabul qilishni nomarkazlashtirish maqsadida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

noqishloq xo‘jaligi korxonalarini tashkil etish va rivojlantirish, mahalla fuqarolar yig‘inlarining mavjud imkoniyatlarini safarbar qilish hamda mahalla fuqarolari, agrar tadbirkorlik, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari

o'rtasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun grant mablag'lari va investitsiyalarni jalb etishning shaffof mexanizmini ishlab chiqish va tajriba tariqasida amalga oshirish;

qishloq hududlarini rivojlantirish milliy dasturini ishlab chiqish.

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ida ma'lumot va axborot yig'ish tizimi markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqilgan eskirgan mexanizm va amaliyotga asoslangan.

Ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligini baholash natijalari joylardagi haqiqiy holatga mos kelmaydi.

Aniq va ishonchli ma'lumotlarning yetishmasligi yangi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishini, shuningdek, ularning sohaga ta'sirini obyektiv baholash imkonini bermaydi.

Ishonchli marketing ma'lumotlarining yetishmasligi fermerlar va boshqa agrobiznes subyektlari tomonidan biznes rejalarni ishlab chiqishda yoki faoliyatini to'g'ri rejalashtirishda mavjud va o'zgaruvchan bozor imkoniyatlaridan foydalanishni sezilarli darajada cheklamoqda.

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'i holatini aks ettiruvchi ishonchli statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish tizimiga investitsiyalarning jalb qilinishi davlat va xususiy sektor rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur ustuvor yo'nalishning asosiy maqsadi bo'lib, ishonchli statistik ma'lumotlarni to'plash, taqqoslash va tarqatish tizimini takomillashtirish hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun:

qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari statistikasini rivojlantirishning aniq rejasini qabul qilish;

asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlari (xarajat, daromad, foyda, rentabellik) to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, taqqoslash va chop etish;

“Aqlli qishloq xo‘jaligi”ni rivojlantirish davlat dasturini ishlab chiqish;  
mahsulot yetishtirish samaradorligi, tarmoqlarni davlat tomonidan qo‘llab-  
quvvatlash, mehnat qonunchiligi, soliqqa tortish, kreditlash va boshqa zarur  
ma‘lumotlarni qamrab olgan fermer xo‘jaligini yuritish ma‘lumotnomasini  
(spravochnik) chop etish;

yirik mahalliy ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilar to‘g‘risida ma‘lumot  
va axborotlar katalogini chop etish;

sohada amalga oshirilgan choralar va erishilgan natijalar hamda davlat  
siyosatining istiqbolli choralarni o‘zida qamrab olgan qishloq xo‘jaligining yillik  
hisobotini (Agriculture annual report) chop etish;

qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasida milliy tizim va xizmatlarni  
rivojlantirish uchun ma‘lumotlar almashinuvi platformalarida hamda xalqaro  
forumlarda faol ishtirok etish;

qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni (Agriculture census) o‘tkazish;

qishloq xo‘jaligi hayvonlarini identifikatsiyalash, ularning harakatini kuzatish  
va monitoring qilish tizimini joriy etish zarur.

### **3.3. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi: vazifalar va kutilayotgan natijalar**

Strategiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O‘zbekiston  
Respublikasi qishloq xo‘jaligi sohasini 2030-yilgacha rivojlantirishda quyidagi  
ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

- yer ajratish va uni olib qo‘yishda shaffof tizim yaratiladi, korrupsiya va boshqa  
subyektiv holatlarning oldi olinadi, yerdan foydalanuvchilar huquqlarini  
kafolatlaydigan tizim yaratiladi;
- yerlarni noqonuniy ajratish, ulardan xo‘jasizlarcha foydalanish holatlari keskin  
kamayishiga erishiladi;

- 1,1 mln gektar qishloq xo‘jaligi yerlari o‘zlashtiriladi, 535,6 ming gektar lalmi, yaylov va boshqa yerlardan foydalanish samaradorligi ortadi;
- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar to‘liq xatlovdan o‘tkaziladi;
- yer uchastkalariga bo‘lgan huquqning haqiqiy bozor narxi shakllanadi, bu huquqdan garov ta‘minoti sifatida foydalanish mumkin bo‘ladi, tadbirkorlar va aholi qo‘lidagi kapital qiymati o‘z o‘zidan ortadi, yer solig‘i solinadigan bazani kengaytirish imkoniyati yaratiladi;
- respublika hududlarida sug‘orishning suv tejavchi tizimlaridan foydalanilish maydonlari kengaytiriladi va ushbu tizimlarni joriy qilishni rag‘batlantirish mexanizmlari takomillashtiriladi;
- suv iste‘molchilari va suv yetkazib beruvchilar o‘rtasida hisob-kitoblar iste‘mol qilingan suvni yetkazib berish uchun qilingan haqiqiy xarajatlar hajmidan kelib chiqqan holda va bozor mexanizmlari asosida amalga oshiriladi;
- hududlar ixtisoslashtiriladi, bir joyda bir xil mahsulotlarni yetishtirish, agroinnovatsion g‘oyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga sharoit yaratiladi;
- paxta xomashyosi va boshqoli don yetishtirishda davlatning ishtirokidan bosqichma-bosqich voz kechiladi;
- paxta xomashyosi va boshqoli don mahsulotlari yetishtiruvchilari bilan qabul qiluvchilar o‘rtasida mahsulot hajmiga qarab shartnoma tuzish tizimi yo‘lga qo‘yiladi;
- yerlarning turiga qarab yuqori hosil beruvchi ekinlar yetishtiruvchilar tomonidan mustaqil joylashtiriladi;
- mayda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va yerlardan oqilona foydalanish imkoniyati yaratiladi;
- sifatli raqobatbardosh meva va sabzavotlarni ishlab chiqarish, saqlash, chuqur qayta ishlash va eksport o‘sishi barqarorligini ta‘minlashga erishiladi;

- ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasi amalga oshiriladi;
- kadrlar tayyorlashda oliy va o'rta ta'lim o'rtasida uzviy aloqadorlik ta'minlanadi;
- ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanadi, laboratoriya jihozlari yangilanadi, xodimlarning malakasi oshiriladi;
- qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari o'zini o'zi moliyalashtirishga o'tkaziladi;
- boshqoli donni birja savdolarida cheklovlarsiz sotilishiga imkon yaratiladi, davlat xaridlari kamaytiriladi;
- boshqoli don bozorida intervension mexanizmlar joriy etiladi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligi va raqobatbardoshligi ortadi;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga maqbul qishloq xo'jaligi va ekologik amaliyoti (GAEP), agrar tadbirkorlikka maqbul ishlab chiqarish amaliyoti (GMP) va boshqa sifat standartlari joriy etiladi;
- qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatishning shaffoflik va raqobatga asoslangan bozor xizmatlari rivojlanadi;
- qishloq xo'jaligida o'rtacha mehnat unumdorligi 1,7 barobar oshadi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha qo'shimcha 3,4 mln tonna quvvat yaratiladi;
- mahsulotlarni qayta ishlash ko'rsatkichi 30 foizga yetkaziladi (2030-yilga qadar eksport hajmi 20 mlrd AQSh dollariga yetkaziladi).

### **Nazorat uchun savollar.**

**1. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasini 2030-yilgacha rivojlantirishda nimalarga alohida e'tibor qaratilmoqda?**

**2. Qishloq hududlarini barqaror rivojlanishini ta'minlash nimalarga bog'liq?**

**3. . Qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlarining tizimli integratsiyasi qanday ishlaydi?**

**4. Agrologistikada ta'lim va axborot tizimini takomillashtirishda asosiy e'tibor nimalarga qaratilish lozim?**

## **IV-BOB. AGROSANOAT MAJMUIDA LOGISTIK TIZIMI**

### **4.1. Qishloq xo'jalik korxonasining logistik tizimini shakllantirish asoslari**

Agrosanoat majmuasi - bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi va qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlari majmuasidir.

Agrosanoat majmuasining maqsadli faoliyati minimal xarajatlar hisobiga mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xom-ashyo bilan to'laroq qondirishga qaratilgan.

**Agrosanoat majmui logistikasi quyidagi asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi:**

**1.ASMning barcha sohalarini resurs ta'minotini ratsionalizatsiyalash;**

**2.ASMning sohalarini optimallashtirish.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida agrosanoat majmuasining tarmoq va korxonalarini o'rtasidagi o'zaro aloqalar tovar ayriboshlash orqali amalga oshirilgan ekan, ASM tizimini hosil qiluvchi unsurlari bo'lib, tovar va ular bilan bog'liq moliyaviy va axborot oqimlari xizmat qiladi. ASM kuchli iqtisodiy va ishlab chiqarishning o'zaro aloqalariga ega, qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarish, qayta ishlash va saqlashga asoslangan, qishloq xo'jaligini va qayta ishlash sanoatini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi, majmua sifatida tavsiflanadi.

ASM uchta sohani o'z ichiga oladi. Birinchi soha ASM ni ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi tarmoqlardan iborat. Ikkinchi sohaga bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar kiradi.

ASMning uchinchi sohasiga qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlanishi, qayta ishlanishi va uni iste'molchilarga yetkazish bilan shug'ullanadigan tuzilmalar va korxonalar kiradi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda mavjud sharoitlarda ASM sohalari orasida, tovar ayirboshlashni moddiy oqimlar bilan ta'riflash mumkin.

- birinchi sohadan ikkinchi sohaga yo'naltirilgan moddiy oqim: texnika, mashina, uskuna, yoqilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar va qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarning boshqa moddiy-texnik resurslardagi (MTR) ehtiyojini qondirish uchun lozim bo'lgan yetkazishlarni o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jalik moddiy-texnika ta'minotining (MTT) o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, ushbu moddiy oqim, odatda, tijorat vositachilari ishtirokida tashkil etiladi;

- ikkinchi sohadan birinchi sohaga yo'naltirilgan moddiy oqim, birinchi sohada ishlatiladigan birlamchi qishloq xo'jalik xom-ashyosi (birinchi soha korxonasi va tashkilotlarining umumiy ovqatlanish tizimiga), hamda barter almashuvi uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazishni o'z ichiga oladi;

- ikkinchi sohadan uchinchi sohaga yo'naltirilgan moddiy oqimlar, qayta ishlash sanoati korxonalariga oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlar ishlab chiqarish uchun qishloq xo'jalik xom ashyosini (qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari mahsulotini) (QXM) yetkazib berishini o'z ichiga oladi:

- uchinchi sohadan birinchi sohaga yo'naltirilgan moddiy oqim, qishloq xo'jalik xom-ashyosini qayta ishlash natijasida olingan oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlarni yetkazib berishini o'z ichiga oladi. Bu moddiy oqim, birinchi sohada band ishchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi.

Moliyaviy resurslar va axborot oqimlari bilan kuzatiladigan, yuqorida aytib o'tilgan moddiy oqimlar ASMdagi logistika tizimlarini tashkil etadi.

Moddiy oqimlar logistik zanjirning quyidagi halqalarini o'z ichiga oladi:

- qishloq xo'jaligining moddiy-texnika ta'minoti (QXMTT);

- qishloq xo'jalik tovar mahsulotlarini tayyorlashning, ularning asosiy qismi tayyorlov va davlat ehtiyojlari uchun xaridlar bo'yicha maxsus tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi;

- qishloq xo'jalik tovar mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash, maxsus omborxonalar tarmog'i va birlamchi qayta ishlash bo'yicha maxsus korxonalar;
- ochiq bozorga va davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik tovar mahsulotlarini yetkazib berish xaridlar tizimini tashkil etish. qishloq xo'jalik xom-ashyosi va mahsulotini sotish bo'yicha tashkiliy bozorlar tarmog'ini yaratish ham shular jumlasidandir

#### **4.2. Qishloq xo'jaligida makrologistik va mikrologistik tizimi**

Logistika moddiy, axborot va boshqa oqimlarni boshqarish bo'yicha fan sifatida jamiyat iqtisodiy hayoti sohasining ma'lum bir qismini o'z manfaatlarini doirasiga oladi. Shu munosabat bilan ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalarni rasmiylashtirish uchun u bir necha yo'nalishlarda rivojlanadi.

Logistika ishlab chiqilayotgan muammolar ko'lami bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- mikrologistika;
- makrologistika;
- mezologistika.

**Makrologistik tizim** - bu hududiy yoki ma'muriy-hududiy darajada ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, harbiy va shu kabi vazifalarni hal etish uchun tuzilgan tizim bo'lib, uning maqsadi foyda olish hisoblanadi. Makrologistik tizimlar quyidagi belgilar bo'yicha tasniflanadi:

Mamlakatni ma'muriy-hududiy bo'lish belgisi bo'yicha logistika tizimi tumanlar, tumanlararo, shahar, viloyatlar, vohalar, hududiy, hududlararo, respublika va respublikalararo turlarga bo'linadi.

Obyektiv-funksional belgi bo'yicha makrologistik tizimlar bitta yoki bir nechta sohalar korxonalari, idoralar, sohalar, idoralararo (sohalararo), harbiy, institutsional va hokazo guruhlarga ajratiladi.

Umumiy holatda makrologistika quyidagi vazifalarni hal etishi kerak:

- yetkazib beruvchilar va iste'molchilar bozorini tahlil qilish;
- iste'mol va taqsimlash konsepsiyasini ishlab chiqish;
- omborlarga joylashtirish tuzilmasi va omborlarni joylashtirish o'rnini tanlash;
- transport turlarini tanlash;
- transport jarayonini tashkil etish;
- moddiy oqimlar harakatining oqilona yo'nalishlarini aniqlash;
- xomashyo, materiallar, yarim fabrikatlar va butlovchi qismlarni yetkazib berish punktini tanlash;
- tayyor mahsulotni yetkazib berish va taqsimlash chizmasini tanlash;
- umumiy axborot tizimini, axborotni taqdim etish va kodlashning yagona shaklini, uni shakllantirish, saqlash, qayta ishlash va foydalanish uslubini yaratish.

Makrologistik tizimlarni yaratish maqsadi mikrologistik tizimlarni tuzish maqsadlari va mezonlaridan ancha farq qilish mumkin. Firma uchun uning bozor muhitida biznes faoliyatini optimallashtirish mezonlari va tegishli ravishda logistik tashkilotni shakllantirish hamda boshqarish sifatida umumiy logistik harajatlar minimumi, tayyor mahsulotni sotishning (yoki foydaning) maksimum hajmi, bozorning eng ko'p ulushiga erishish, bozorda sotish o'rnini saqlab qolish, aktsiyalarning kurs qiymatining maksimal hajmi kabi va boshqa mezonlari qo'llanilishi mumkin. Bunda iste'molchilar ehtiyojini mahsulot sifatiga, buyurtmalarni o'z vaqtida bajarish, logistik xizmat ko'rsatish darajasiga qarab to'liq qondirish majburiy shart hisoblanadi.

Odatda makrologistik tizimlarni shakllantirish mezonlari ekologik, ijtimoiy, siyosiy va boshqa maqsadlar bilan aniqlanadi. Masalan, mintaqada ekologik vaziyatni yaxshilash uchun hududiy transport (yuklar) oqimlarini optimallashtirishning makrologistik tizimi yaratishlari mumkin. Yo'nalishlarni qulaylashtirish, transport oqimlarini taqsimlash, tashishlarni transportning bir turidan ikkinchi turiga o'tkazish va hokazolar mazkur tizimning asosiy vazifasi hisoblanadi. Makrologistik tizimlarda

sohalararo moddiy balanslarni shakllantirish, mahsulot ta'minoti va uni sotish turlari hamda shakllarini tanlash, belgilangan hududda ombor, yuk terminallari, dispetcherlik (logistik) markazlarni joylashtirish, ko'plab moddiy oqimlar turlari uchun ma'muriy-hududiy taqsimlashni optimallashtirish kabi vazifalar hal etilishi mumkin.

**Mikrologistik tizimlar** biznesni aniq tashkil etish sirasiga kiradi va ishlab chiqarish, ta'minot, sotish jarayonida moddiy hamda unga bog'liq oqimlarni boshqarish va optimallashtirish uchun mo'ljallangan.

Ichki (ishlab chiqarish ichidagi), tashqi va birlashgan mikrologistik tizimlar ajralib turadi.

Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizimlar moddiy oqimlarni mahsulotni ishlab chiqarishning texnologik davri doirasida boshqarishni optimallashtiradi. Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizimlarning asosiy vazifalari moddiy resurslar zahiralarini va tugallanmagan ishlab chiqarishni kamaytirish, firmaning oborot kapitalining aylanishini tezlashtirish, ishlab chiqarish davrining davomiyligini kamaytirish, moddiy resurslar zahiralari miqdorini nazorat qilish va boshqarish, texnologik (sanoat) transporti ishini optimallashtirish hisoblanadi. Mahsulotning eng kam tannarxi va tayyor mahsulot sifati darajasini ta'minlashda ishlab chiqarish davrining minimal davomiyligi esa ishlab chiqarish ichidagi logistik tizimlar ishlashini optimallashtirishning mezonlari sanaladi.

Tashqi logistik tizimlar moddiy va unga hamrohlik qiluvchi oqimlarni ularning manbalaridan ishlab chiqarishdan tashqari texnologik davrning mo'ljallangan punktlariga boshqarish va optimallashtirish bilan bog'liq masalalarni, umumiy harajatlarni va logistik tizimning ayrim bo'g'inlarining logistik operatsiyalari bilan bog'liq harajatlarni optimallashtirish, moddiy resurslar va tayyor mahsulotni yetkazib berish vaqtini hamda iste'molchilar buyurtmalarini bajarish vaqtini qisqartirish masalalarini hal etadi. Ta'minot va taqsimlash tarmoqlari, tovar o'tkazish tarmoqlari tarkibiy qismlari esa tashqi logistik tizimlar bo'g'inlari sanaladi.

Yetkazib beruvchilarning tovar ishlab chiqarish tarmog'i bilan birga yukni transportda tashish, omborlarga joylashtirish, saqlash va qayta ishlash bo'yicha turli logistik operatsiyalarni bajaruvchi va tashqi logistik tizimni tashkil etuvchi logistik tizimlar, bo'g'inlardan tashkil topgan tuzilmalar ishlab chiqaruvchi firma ta'minotining (xaridlar) tashqi logistik tizimlari hisoblanadi. Bunday tizimda logistik boshqaruvning muhim vazifalaridan biri logistik vazifalarni muvofiqlashtirish hamda yetkazib beruvchilar, vositachilar va iste'molchilar maqsadlarini o'zaro moslashtirish hisoblanadi.

Birlashgan mikrologistik tizimlar chegaralari moddiy resurslarni sotib olish, tayyor mahsulotni iste'molchiga sotishni tashkil etish, sotishdan keyingi servis xizmatini ko'rsatish chog'ida taqsimlash tizimidagi ta'minotni, ishlab chiqarish ichidagi logistik vazifalarni va logistik operatsiyalarni tashkil etish jarayonlarini o'z ichiga oladigan ishlab chiqarish-taqsimlash davri tomonidan aniqlanadi.

Birlashgan logistik tizimdagi logistika menejmenti firma ishlarini va uning logistik sheriklarini tashkil etishga erishish uchun moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini boshqarishni optimallashtirish jarayonlarida vaqt hamda kenglik omillarini to'liq hisobga olishni ta'minlaydigan boshqaruvchilik yondashuvini ifoda etadi. Umumiy logistik sarf-harajatlarni minimallashtirish kontseptsiyasi va ishlab chiqarish-taqsimlash davrining barcha bosqichlarida sifatni boshqarish kontseptsiyasi birlashgan logistik tizimlarni shakllantirishni belgilovchi omil hisoblanadi.

Ba'zida ishlab chiqarish ichidagi va tashqi logistik tizimlar birlashgan logistik tizimlarning kichik tizimlari sifatida ko'rib chiqiladi. Bazisli logistik operatsiyalar (ta'minot, ishlab chiqarish, sotish) logistik tizim oldiga qo'yilgan optimallashtirish maqsadlari va mezonlariga bog'liq holda moddiy, moliyaviy, axborot oqimlarini va logistik tizimning ko'plab bo'g'inlarini muvofiqlashtiradigan va birlashgan boshqaruvni amalga oshiradigan maxsus tashkiliy-funksional tuzilmalarni yaratish orqali amalga oshiriladi. Firma ichidagi bo'linmalar (transport, ishlab chiqarish,

omborlar va hokazolar) va u yoki bu logistik operatsiyalar hamda vazifalarni bajaruvchi jalb qilingan korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalar logistik tizimlar bo'g'inlari bo'lishi mumkin.

Mikrologistik tizimlarning umumiy tuzilmasi bazis operatsiyalar va logistik tizimlar maqsadlarini qamrab olish darajasidan qat'i nazar birlashgan, tashqi yoki ishlab chiqarish ichidagi logistik tizim sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Mikrologistika bitta korxonada doirasida quyidagi vazifalarni hal etadi:

- kirish zahirlari darajasini prognoz qiladi va nazorat etadi;
- oraliqdagi zahrlar darajasini prognoz qiladi va nazorat etadi;
- tayyor mahsulot zahiralari darajasini prognoz qiladi va nazorat etadi;
- sanoat korxonalari ichidagi ishlab chiqarish jarayonida buyumlar sotishni prognoz qiladi, boshqaradi va ularning ko'chishini nazorat qiladi;
- transport-ombor va yuklash-tushirish ishlarining bajarilishini boshqaradi.

Logistik tizimda logistik boshqaruv jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun odatda ta'minotning axborot, tashkiliy, iqtisodiy, texnik, huquqiy, ergonomik va boshqa turlaridan tashkil topgan kichik tizimlari majmui shakllantiriladi.

Mikro va makrologistika o'rtasida fundamental farq bor.

Yuridik maqomga ega korxonalar makrologistika tomonidan nazorat qilinadigan obyektlar hisoblanadi. Ular orasidagi o'zaro harakat tovar-pul munosabatlarga asoslanadi va huquqiy kuchga ega tegishli shartnoma hamda bitimlar bilan qat'iy belgilanadi.

### **Nazorat uchun savollar**

- 1.Makrologistika tushunchasiga ta'rif bering.**
- 2.Makrologistik tizim vazifalari nimalardan iborat.**
- 3.Mikrologistika tushunchasiga ta'rif bering.**
- 4.Makrologistik tizimda transport xarakati yo'nalishi nimalardan iborat?**
- 5.Makro va miqrologistikada umumiy axborot tizimi nimalardan iborat?**

## **V-BOB. AGROLOGISTIKADA ZAHIRALAR TIZIMI**

### **5.1. Moddiy zaxira tushunchasi**

Moddiy zaxira tushunchasi logistikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Tabiatdan olingan xom-ashyo, oxirgi iste'molchiga tayyor mahsulot ko'rinishida yetib borgunga qadar, harakatlanadi, boshqa materiallar bilan birikadi va ishlab chiqarishda qayota ishlanadi. Moddiy zanjir bo'ylab harakatlanayotgan xom-ashyo (keyinchalik esa yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ham) u yoki bu ishlab chiqarish yoki logistik operatsiyaga kirish navbatini kutib to'xtalib turadi.

Moddiy zaxiralar – bu ishlab chiqarish va muomalaning turli bosqichlarida turgan, shaxsiy yoki ishlab chiqarish iste'moli jarayoniga kirishishni kutayotgan, ishlab chiqarish – texnik maqsadda, aholi iste'molida va boshqalarda ishlatiladigan tovarlardir.

Agarda, birlamchi xom-ashyoni aholi iste'moli mollariga aylanishini va uni harakatlanishini ta'minlovchi ishtirokchilarning butun zanjiri yagona mexanik konveer kabi ishlaganda, kutish vaqtini deyarli nolga tushirish mumkin bo'lar edi. Ammo hayotda bunday kutishlarsiz bo'lmaydi.

Zaxiralarni yaratish doimo xarajatlar bilan bog'liq. Zaxiralarni yaratish va saqlash bilan bog'liq bo'lgan, xarajatlarning asosiy turlarini sanab o'tamiz:

- «muzlatib qo'yilgan» moliyaviy mablag'lar;
- maxsus jihozlangan xonalarga bo'lgan xarajatlar;
- maxsus xodimlarning ish xaqi;
- noozliklar, o'g'irliklarning doimiy xavfi;

Zaxiralar mavjudligi – bu xarajatlardir. Ammo zaxiralar yo'qligi – bu ham xarajat, faqatgina ular turli xildagi yo'qotishlar ko'rinishida bo'ladilar. Zaxiralar yo'qligi bilan yuzaga keladigan yo'qotishlarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarishdagi to'xtalishlardan bo'lgan yo'qotishlar;

- talab qilingan vaqtda omborda tovar bo'lmaganidan yuzaga kelgan yo'qotishlar;
- tovarlarning kichik partiyalarini yuqori bahodan sotib olgandan yuzaga kelgan yo'qotishlar.

Zaxiralar mavjudligi muayyan xarajatlar bilan bog'liq bo'lishiga qaramay, ishbiarmonlar ularni yaratishga majburdirlar, chunki zaxiralar yo'qligi undan kattaroq foydani yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Zaxiralarni ratsional boshqaruvi, zaxiralarga bo'lgan minimal xarajatlarda, ishlab chiqarish va savdo jarayonining uzluksizligini ta'minlashga imkon beradi.

Ishbiarmonlar moddiy zaxiralarni yaratayotganda tayanadigan asosiy omillar quyidagilardir:

**Talabning o'zgarish ehtimoli (chiquvchi moddiy oqim intensivligini bashorat qilib bo'lmaydigan pasayishi).** Tovarga bo'lgan talab o'zgarib turadi, va uni o'zgarishini har doim ham oldindan bilib bo'lmaydi. Shuning uchun, agarda yetarlicha zaxiraga ega bo'lmasa to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan talab qondirilmasligi mumkin, ya'ni ishbiarmonda tovar bo'lmagandan keyin mijozning puli o'zida qolib u xaridsiz ketib qoladi.

**Tovarlarning ayrim turlariga bo'lgan talabni mavsumiy o'zgarishi.** Bu ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlariga tegishlidir. Masalan, O'zbekistonda kartoshka hosili yig'iladi. Ammo kartoshka oqimlari tovar o'tkazuvchi zanjirlar (bozorlar, do'konlar) bo'ylab yil davomida harakatlanadi. Demak, qaerdadir zaxira yig'ilishi lozim bo'ladi.

Tovarlarning yirik partiyalarini xarid qilganlarga beriladigan chegirmalar ham zaxiralar yaratishning sababchisi bo'lishi mumkin (ayrim yurtdoshlarimiz aynan shu sababli uylarida oziq-ovqatlarning nisbatan katta zaxiralarini saqlaydilar).

**Mahsulotlarni olib-sotish.** Ayrim tovarlarning narxi keskin oshib ketishi mumkin. Bu oshishni oldindan ko'ra bilgan korxonalar, bozor narxini o'zgarishi hisobiga foyda olishni ko'zlab zaxira yaratadi.

**Buyurtmani joylashtirish va yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning kamayishi.** Har bir yangi buyurtmani rasmiylashtirish va yetkazish jarayoni qator xarajatlar bilan kuzatiladi:

- ma'muriy xarajatlar: yetkazib beruvchini izlash, u bilan muzokaralar olib borish, xizmat safarlari, shaharlararo telefonda so'zlashuvlar va hokazolar;
- buyurtmani tashishga bo'lgan xarajatlar;

Bu xarajatlarni, buyurtmalar miqdorini kamaytirgan xolda, pasaytirish mumkin. Bu esa buyuriladigan partiya hajmini oshishiga, va zaxira ko'payishiga olib keladi.

Yetkazishlarning belgilangan grafigini buzilish ehtimoli (kiruvchi moddiy oqim intensivligini bashorat qilib bo'lmaydigan pasayishi). Bunday holda, savdo jarayoni to'xtab qolmasligi uchun, zaxiralar zarur bo'ladi. Bu ayniqsa korxonalar daromadini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydigan tovarlar uchun muhimdir.

Ishlab chiqarishda esa, jarayonlarning rejalashtirilmagan to'xtab qolishi, ishlab chiqarishning uzluksiz sikliga ega bo'lgan korxonalar uchun ayniqsa xavflidir.

Mahsulot birligini ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish. Mahsulotlarni talab paydo bo'lgan sari kichik partiyalar bilan ishlab chiqarish mumkin. Unda zaxiralar kichik bo'ladi, ammo bir birlik mahsulot tannarxi oshadi. Ikkinchi variant – bitta katta partiya ishlab chiqarish va tayyor mahsulotni zaxirada saqlab turish. Bunday holda, zaxira oshgan taqdirda ham, bir birlik mahsulot tannarxi pasayishi mumkin.

Ishlab chiqarish va taqsimot operatsiyalarini bir tekisda amalga oshirish imkoniyati. Faoliyatning bu ikkita turi o'zaro bog'langan bo'ladi: ishlab chiqarilgan narsagina taqsimlanishi mumkin. Zaxiralar yo'qligida, taqsimot tizimidagi moddiy oqimlar intensivligi ishlab chiqarish intensivligini o'zgarishlariga muvofiq ravishda

o'zgarib turadi. Taqsimot tizimida zaxiralarning mavjudligi, ishlab chiqarishdagi vaziyatdan qat'iy nazar, realizatsiya jarayonini yanada tekisroq amalga oshirishga imkon beradi.

O'z navbatida, ishlab chiqarish zaxiralarining mavjudligi, xom-ashyo yetkazishdagi o'zgarib turishlarni tekislab, ishlab chiqarish jarayonining bir tekisligini ta'minlaydi.

**Xaridorga tezda xizmat ko'rsatish imkoniyati.** Xaridor buyurtmasini quyidagi usullarning biri bilan bajarish mumkin:

- buyurilgan tovarni ishlab chiqarish;
- buyurilgan tovarni sotib olish;
- buyurilgan tovarni mavjud zaxiradan tezda olib berish;

Oxirgi usul, odatda, eng qimmat bo'ladi, chunki u zaxiralarni saqlashni talab etadi. Ammo raqobat muxitida aynan ushbu omil hal qiluvchi bo'lishi mumkin.

**Ehtiyot qismlar bo'lmaganligi uchun yuzaga keladigan ishlab chiqarishdagi to'xtashlarni kamaytirish.** Asbob-uskunalarni ishdan chiqishi, ehtiyot qismlarning zaxirasi bo'lmagan taqdirda, ishlab chiqarish jarayonining to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Bu ayniqsa uzluksiz ishlab chiqarish jarayoniga ega bo'lgan korxonalar uchun muhimdir, chunki ishlab chiqarishning to'xtab qolishi ular uchun qimmatga tushishi mumkin.

**Ishlab chiqarishni boshqarish jarayonining soddalashuvi.** Bunda korxonada ichidagi ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida yarim tayyor mahsulotlar zaxiralarini yaratish tushuniladi. Ushbu zaxiralarning mavjudligi har xil uchastkalardagi ishlab chiqarish jarayonlarining o'zaro kelishuvchanligiga bo'lgan talablarni pasaytirish imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillarda ta'kidlanishicha ishlab chiqarish, savdo va boshqa sohalarda ham zaxiralarni yaratish maqsadga muvofiqdir, aks holda xarajatlar

oshib ketadi. Shu bilan birga zaxiralarning optimal kattaligini topish ham muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>6</sup>

## **5.2. Agrologistikani boshqarishning uslubiy jihatlari.**

Mahalliy, ba'zi holatlarda xorijiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda amalga oshirilgan transport-ombor xo'jaligini rivojlantirishga jalb qilingan sarmoyalarga qaramasdan, kutilayotgan natijaga erishilmayapti. Infratuzilmaviy majmua yuqori salohiyatli imkoniyatga ega bo'lsada, shunga qaramay unga yuklanayotgan ishonchni oqlamayapti. Asosiy ishlab chiqarish va mahsulotni sotishga kuchsiz birlashtirilgan kapitalni passiv jamlash kelgusida rivojlantirishnig ekstensiv omiliga asoslangan yondashuvlar ertami kechmi tugashiga olib keladi. Bu borada yangi tartiblarga tayangan va chuqur ilmiy asosga ega logistika kontsetsiyasi talab etiladi.

Logistikaning ilmiy asoslariga quyidagilar kiradi:

- tizimli yondashuv;
- iqtisodiy-matematik va iqtisodiy-statistik uslublar majmui;
- axborot texnologiyalari.

Quyidagilar tarkibiy qismlar logistika iqtisodiy asoslari hisoblanadi:

- mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning borligi;
- infratuzilmani rivojlantirish;
- tabiiy narxni tashkil etish;
- bozorda talab kon'yukturasi.

Logistik tizimlar uchun talab avvalambor yetkazib berish shartnomasi, so'ngra buyurtma shaklida paydo bo'ladi.

---

<sup>6</sup> “Агрологистика” фани бўйича ўқув-услугий мажмуа, Рустамова И.Б. – ТОШДАУ “Агрологистика” кафедраси доценти, и.ф.н. 2018 й.

Evristik yondashuvlar, ya'ni qaror qabul qiluvchi professional shaxslarga asoslangan ekspert baholarini qo'llash logistik tizimlarning uslubiyat asoslari sanaladi. Aniq xo'jalik topshiriqlarini hal etish jarayonida matematik hisob-kitoblar va logistik davomiyligidan tashqari shu kabi vazifalarni hal etish tajribasi hamda o'xshash xo'jalik vaziyatlarga asoslangan norasmiy, sezgirlik mulohazalari ham katta rol o'ynaydi.

Logistik tizimlarni ishlab chiqish va yaratishda o'zaro xatti-harakatning butun mexanizmini va uning ayrim tarkibiy qismlarining xususiyati hamda tabiatini aniqlovchi tamoyillar muhim ahamiyatga egadir.

Ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatidagi muammolarni hal etishga logistik yondashuvni aks ettiruvchi bir nechta asosiy tamoyillar mavjud.

**Sinergiyalik tamoyili.** U ko'zlangan maqsadlarga erishishda majmuaviy tizimli yondashuvni ifoda etadi. Ushbu tamoyil asosida ishlab chiqarish va muomala jarayonlari birlashishi hisobga olingan holda, logistik tizimlarning ayrim tarkibiy qismlarining faoliyatini yaxshilashdan ko'ra tuzilma bo'yicha harakatlarning barcha o'zaro bog'liq jarayonlarda kelishiganligi hisobidan katta samaraga erishish mumkin.

**Jadallik tamoyili.** Logistik tizimlar tashkiliy-iqtisodiy ta'lim bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ular qamrab olinayotgan jarayonlar mohiyatini aks ettirishi lozim. Ushbu mohiyat takomillashtirishni rivojlantirish, unga intilish bilan ifodalanadigan istiqbolli jadallikdan iborat. Jadallik harakat shakli sifatida ishlab chiqarish va ta'minot-sotish operatsiyalari, mehnat vositalari, shuningdek, rivojlanishning navbatdagi bosqichida aniqlangan maqsad hamda vazifalarning diskretligini birlashtiradi.

**To'liqlik tamoyili.** Bu logistikadagi tizimlar bir-biri bilan chambarchas bog'langan bir qancha yoki ko'plab tarkibiy qismlar majmui sifatida tuzilishi kerak. Logistik tizim doirasida birorta ayrim tarkibiy qismlarning muntazam mustaqil

faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'yilmaydi va bu notuzilmaviy hisoblanadi. Bundan faqat favqulotda va nostandart holatlarga mustasno.

**Moslashuvchanlik tamoyili.** Ushbu tamoyilga amal qilgan holda, logistik tizimlar va zanjirlar shunday tuzilishi kerakki, bunda tuzilmaviy tarkibiy qismlar har doim bir-birini almashtirish imkoniga ega bo'lishi kerak. Ushbu tamoyilga rioya qilish tizimga ichki yoki tashqi sharoitlarda moslashishga yordam beradi. Bu bilan boshqa tamoyil ham chambarchas bog'langan.

**Tashabbuskorlik tamoyili.** Logistik tizimlarni ushbu tamoyil bo'yicha tuzish shakllanayotgan tuzilmalar tomonidan yuz berishi mumkin bo'lgan voqealarga ogohlantiruvchi ta'sir qobiliyatining, shuningdek, xo'jalik faoliyati jarayoniga ijobiy ta'sir qiluvchi sub'ektiv sharoitlarni yaratish va tartibga solish imkoniyatining namoyon bo'lishini ko'zda tutadi.

**Maqsadga muvofiqlik tamoyili.** Bu tamoyil ko'zlangan maqsadlarga erishishda ijobiy rol o'ynaydigan imkoniyatni jalb qilishga mo'ljallangan. Shunday qilib mo'ayyan vazifalarning qarorlar variantining ko'pligi ko'chish sarf-harajatlari yoki vaqtini imkon qadar kamaytirishga intilish xususiyatiga ega tishkiliy, texnik va texnologik tuzilmalarni tanlashda saylash xususiyati namoyon bo'ladi. Logistika tamoyillarini amalga oshirish birinchi navbatda, yagona rahbarlik ostida birlashgan tuzilmalarda omborchilik va transport xo'jaligi bo'yicha bir-biriga bog'langan vazifalar to'plashni yuzaga keltiradi.

Agar yuk tashish va omborchilik xo'jaliklarini boshqarishning an'anaviy uslublari diskret, ko'pincha esa alohida xususiyatga ega bo'lsa, logistik yondashuvda kompleks boshqaruvga o'tish amalga oshiriladi.

Logistika nuqtai nazaridan xo'jalik tizimlarining istiqbolliligi nafaqat ularning moddiy-texnika bazasini ko'zlayitirish, balki uni takomillashtirish, ya'ni u o'z ichiga olgan va u bilan bog'liq barcha narsalarning kelishilgani bilan erishilishini nazarda tutish kerakki, chet elda xo'jalik faoliyatini tashkil etishning eng samarali

ko'rsatkichiga nafaqat transport-omborchilik xo'jligini ekstensiv rivojlantirish, yaxshi jihozlangan ombor majmualarini ommaviy ravishda qurish, istiqbolli texnologiyalar, konstruktsiyalar va asbob-uskunlardan foydalanish tufayli, balki ishlab chiqarish, transportda tashish, ta'minot va sotishni logistik tamoyillaridagi barcha o'zaro bog'liq tizim va kichik tizimlarni imkon qadar birlashtirish orqali moslashtirish natijasida erishilgan.

Ushbu tamoyillarni amalga oshirish barcha turdagi zahiralar miqdorini kamaytirish, moddiy oqimlar nomutannosibligini pasaytirish, moddiy resuslar va tayyor mahsulotni saqlash hamda ko'chirishga ketadigan harajatlarni qisqartirishga olib keladi. Bundan tashqari, xo'jalik faoliyatini boshqarishda balanslashtirishni oshiradi. Logistik tizimga kiruvchi tuzilma va bo'linmalar bir maromda faoliyat yuritishi barqaror xususiyatga ega bo'ladi. Bundan tashqari, logistika tamoyillari uslubiyatni takomillashtirish va tashkiliy loyihalashtirish sifatini oshirish, transport-omborchilik, ishlab chiqarish, kommunikatsiya va axborot kichik tizimlarini loyihalashtirishga tizimli yondashuvni ta'minlash imkonini beradi.

Loyihaviy-izlanish ishlarida logistik yondashuvni qo'llash ishlab chiqarish tizimi va infratuzilmaviy kichik tizimlar loyihalarini ushbu tizimlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan voqealarni bashorat qilishning yuqori darajali loyihalarini ishlab chiqish, harakat tuzilmasini shakllantiruvchi ishlab chiqarish-iqtisodiy tarkibiy qismlar majmui samaradorligini oshiradigan kutilayotgan aniq natijalarga erishishni kafolatlash imkonini beradi.

Logistik vazifalar va tamoyillarni amalda o'zgartirish turli-tumanligi bilan ajralib turadi va muayyan vaziyatga bog'liq.

### **Nazorat uchun savollar.**

- 1. Ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatidagi muammolarni hal etishga logistik yondashuvlarga misollar keltiring**

- 2. Evristik yondashuvlar haqida ma`lumot bering**
- 3. Ishbilarmonlar moddiy zaxiralarni yaratayotganda tayanadigan asosiy omillarga misol keltiring**
- 4. Agrologistikada moddiy zaxira tushunchasi haqida ma`lumot bering**
- 5. Logistik vazifalar va tamoyillarni amalda qo`llash bo`yicha ma`lumot bering**